

O'ZBEKISTONDA HAVO IFLOSLANISHI MUAMMOSI:HUQUQIY OQIBATI VA AHAMIYATI.

Matyoqubov Matyoqub Marksovich

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
"Xalqaro huquq" fakulteti, 2 - bosqich talabasi,
matyoqub206@gmail.com*

Usmanova Shoiri Muhammadiyevna

*Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti
"Xalqaro huquq" fakulteti 1-8a-25 - guruh talabasi,
shorausmonova465@gmail.com*

Anotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda havo ifloslanishi muammosi bugungi kundagi eng dolzarb masalalarda biri sifatida ko'rib chiqilgan. Atmosfera ifloslanishining kelib chiqish sabablari, ularning avj olib ketishiga sharoit yaratib beruvchi asosiy omillar va ularning huquqiy oqibatlari ham yoritib berilgan. Shuningdek, sanoat korxonalaridan bevosita tarqalayotgan, tashkilotlarda isitish tizimlarida noto'g'ri foydalanish chog'ida yuzaga keladigan gazlar, avtomobillardan atmosferaga chiqadigan zararli moddalar hamda tabiatda boshqa sabablarga ko'ra paydo bo'ladigan zaharli gazlarning tabiatga va insonlarning yashash sharoitiga qay darajada nisbiy zarar keltirishi yoritilgan. Binobarin, inson va fuqarolarning atrof muhitdan foydalanishdagi huquq va majburiyatlarini ham milliy qonunchilik normalari asosida keltirib o'tgan va maqola so'nggida bu borada shaxsiy taklif va tavsiyalar taqdim etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема загрязнения воздуха в Узбекистане как одна из наиболее актуальных современных проблем. Освещаются причины загрязнения атмосферы, основные факторы, способствующие их усугублению, а также их правовые последствия. Кроме того, рассматривается, насколько вредоносные вещества, напрямую выделяемые промышленными предприятиями, при неправильном использовании систем отопления в организациях, а также выхлопные газы от автомобилей и токсичные газы, возникающие по другим природным причинам, влияют на окружающую среду и условия жизни человека. Соответственно, приведены права и обязанности человека и гражданина в сфере использования окружающей среды на основе норм национального законодательства, а в конце статьи представлены личные предложения и рекомендации по данной проблеме.

Abstract: This article examines the issue of air pollution in Uzbekistan as one of the most pressing current problems. It highlights the causes of atmospheric pollution, the main factors contributing to its intensification, and its legal consequences.

Furthermore, it discusses the extent to which harmful substances directly emitted from industrial enterprises, gases produced during improper use of heating systems in organizations, automobile exhaust, and toxic gases arising from other natural causes affect the environment and human living conditions. Accordingly, the rights and responsibilities of individuals and citizens in the use of the environment based on national legislation are presented, and at the end of the article, personal suggestions and recommendations on this matter are provided.

Kalit soʻzlar: *Havo ifloslanishi, atrof-muhit, ekologik xavfsizlik, sanoat chiqindilari, huquqiy oqibatlar, ekologik qonunchilik, fuqarolar majburiyatlari, huquqiy normalar, monitoring*

Kirish

Soʻnggi yillarda mamlakatimizning jadal rivojlanish jarayonida, sanoat korxonalarining tobora taraqqiy etishi, transport vositalari va avtomobillar sonining bevosita ortib borishi tashkilotlarda issiqlik tizimlaridan foydalanishda energiya sarfining oʻsishi bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri boʻlgan atmosfera ifloslanishiga sharoit yaratib beruvchi omillar sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu xizmatlardan foydalanish chogʻida atmosferaga tarqalayotgan zaharli moddalar, turli xildagi gazlar va tutunlarning havoga chiqishi bevosita insonlarning hayoti va ekologiyaga zarar yetkazishda yetakchi oʻrin tutmoqda. Xususan, Jahon Sogʻliqni Saqlash tashkiloti (JSST) bergan maʼlumotlarga koʻra, havo ifloslanishi muammosi har yili millionlab insonlarning salomatligiga katta taʼsir koʻrsatmoqda. Koʻrinib turibdiki, Oʻzbekiston ham bu holatdan mustasno emas.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Oʻzbekistonda havo ifloslanishi muammosi nafaqat inson salomatligiga va sogʻliqni saqlashga, balki mamlakatning iqtisodiy tizimiga, qishloq xoʻjaligiga, sanoat rivojiga va hatto iqlim oʻzgarishiga ham oʻz salbiy taʼsirini koʻrsatadi. Shuningdek, bu holat mamlakatimizda fuqarolarning bevosita ekologik huquqlariga ham taalluqli hisoblanadi. Xususan, bosh qomusimiz Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlishi qayd etiladi. Aynan shu kitobning 55-moddasida esa tabiiy resurslar xalq mulki hisoblanishi keltirib oʻtiladi. Bundan koʻrinib turibdiki, havo ifloslanishi bilan bogʻliq muammolar, agar ular bartaraf etilmasa, fuqarolarning ekologik huquqlarining buzilishiga ham olib kelishi mumkin. Yuqorida keltirilgan sabablarning barchasi mavzuning qay darajada muhim ekanligini koʻrsatib beradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi, tabiatda turli xil ekologik resurslardan foydalanish chogʻida yuzaga keladigan zaharli moddalar, atmosfera uchun zaharli boʻlgan gazlarning havoga tarqalishining oldini olish, bu borada turli xil usullar va uslublar, texnikalardan foydalanishni oʻz ichiga olgan. Aynan shu yoʻl bilan ekologiya barqarorlashuviga salbiy taʼsir koʻrsatayotgan zararni bartaraf etishni ham oʻz zimmasiga olgan. Shuningdek, maqola fuqarolarni ushbu xavflardan ogoh qilish, ular



orasida ekologik bilimlarni rivojlantirish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, ekologik salohiyat barobarida huquqiy ongini ham shakllantirish va birgalikda bu muammoga qarshi yechim topishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Asosiy qism

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda havo ifloslanishining bir nechta katta sabablari mavjud:

Dastlab, bu sanoat chiqindilari bo'lishi mumkin, odatda, ishlab chiqarish jarayonida turli xildagi chiqindilar hosil bo'ladi. Sanoat korxonalari ko'pincha havoga zaharli gazlar, chang va kimyoviy moddalarni chiqaradi. Masalan, metallurgiya, kimyo va neft sanoati korxonalari havoga karbonat angidrid, oltingugurt dioksid, azot oksidlari kabi zararli moddalarni ajratadi. Bu moddalar esa atmosferaning ifloslanishiga, kislota yomg'irlarining hosil bo'lishiga va global iqlim o'zgarishiga olib keladi. Bundan tashqari, sanoat chiqindilari ko'p hollarda suv havzalariga tushadi. Kimyo, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati korxonalari chiqindilari orqali suvlarni zaharlaydi. Bu esa ichimlik suvi sifatining pasayishiga, suv hayvonlari va o'simliklarning nobud bo'lishiga olib keladi. Sanoat chiqindilarining ekologiyaga yana bir ta'siri bu ularning tuproqqa zarar yetkazishidir. Og'ir metallar va toksik moddalar, neft mahsulotlari tuproqdagi unumdorlik sifatini pasaytiradi, o'simliklar rivojlanishini to'xtatib qo'yadi va bu bilan birga oziq ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chiqindilarning atrof muhitga ta'siri natijasida hayvonlar va o'simliklar yashash muhitini yo'qotadi. Masalan, kimyoviy moddalar bilan ifloslangan suv havzalaridagi baliqlar soni kamayadi, o'rmonlarda zararli moddalar tuproq va o'simliklar orqali hayot siklini buzadi. Sanoat chiqindilarining ekologik ta'siri inson salomatligiga ham juda katta ta'sir beradi. Havodagi zaharli gazlar insonlarda nafas olishini qiyinlashtirib beradi. Binobarin, u insonlarda allergiya va nafas yo'llari bilan bog'liq kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchisi, bu avtotransport vositalari. So'nggi yillarda mamlakatimizda yengil va yuk avtomobillarining keskin ko'payib ketishi yirik shaharlarda havoning asosiy ifloslantiruvchisiga aylandi. Avtotransport vositalari yonilg'i yonishi jarayonida karbonat angidrid, karbon monoksid, azot oksidlari, oltingugurt dioksid va turli organik birikmalarni havoga chiqaradi. Shuning natijasida havoda bevosita kislota yomg'iri yuzaga keladi, global isish tezlashadi. Bundan tashqari, avtomobillardan tushadigan moylar, abtifriz va boshqa texnik suyuqliklar tuproq va suvlarni ifloslantiradi. Bu ham o'simliklar va hayvonlar hayotiga katta zarar yetkazadi. Qo'shimcha qilib aytganda, avtotransport vositalari ko'pincha neft mahsulotlariga tayanadi. Bu esa tabiiy resurslarning tez kamayishiga olib keladi.

Keyingi sabab bu maishiy chiqindilarning toza havoda yoqilishidir. Ochiq maydonlarda maishiy chiqindilarni, xususan, tarkibida plastik, sintetik, matolar va kimyoviy qoplamalar bor jismlarni yoqish chog'ida ulardan dioksinlar va furonlar deb ataluvchi inson hayoti uchun zararli bo'lgan moddalar havoga tarqaladi. Bu



moddalar nafaqat inson balki hayvon va o'simliklar organizmida ham uzoq muddatli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, maishiy chiqindilarni havoda yoqish paytidagi issiqxona gazlari global isishga ham judda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu esa iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, to'fonlar va boshqa tabiiy ofatlarga olib keladi. Ular shu bilan birgalikda tuproq va suv havzalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yoqish jarayonida hosil bo'lgan kul va kimyoviy qoldiqlar tuproq va suv havzalariga tushganda mavjud tirik organizmlarning yashash muhitini buzadi. Ularning kasallanishiga sababchi bo'ladi.

Atmosferaning ifloslanishi O'zbekistonda bir qator huquqiy oqibatlarni ham yuzaga keltirib chiqaradi:

Bunda birinchi navbatda fuqarolarning konstitutsion huquqlariga putur yetadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga ko'ra, har bir fuqaro sog'lom atrof muhitda yashash huquqiga ega. Havo sifatining yomonlashuvi ushbu asosiy huquqning buzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, havo ifloslanishiga olib keladigan korxonalar va shaxslar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalari bo'yicha jarimaga tortilishi mumkin. Masalan, zararli gazlar va chiqindilarni standartlarga zid ravishda havoga chiqarish va ochiq maydonlarda chiqindilarni yoqish masalalari bo'yicha. Korxonalar atmosferaga zarar yetkazganida davlat tomonidan moliyaviy jarimalar ham qo'llaniladi. Bu jarimalar nafaqat kompensatsiya, balki havo sifatini nazorat qilishni kuchaytirish uchun mo'ljallangan. Yana bir huquqiy oqibat bu xalqaro va milliy standartlarga rioya qilmaslikdir. O'zbekiston xalqaro ekologik bitimlarga a'zo bo'lgani sababli, atmosfera ifloslanishi mamlakatning xalqaro majburiyatlarini buzish hisoblanadi. Bu esa davlatga nisbatan xalqaro huquqiy ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin.


Mazkur tadqiqotda uchta asosiy yondashuvdan foydalanildi. Bular adabiyotlar tahlili, normativ-huquqiy tahlil va empirik tahlillar. Normativ-huquqiy tahlilda O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunlari – "Atmosfera havosini muhofaza qilish" to'g'risidagi qonun va "Atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi" qonun, shuningdek ekologik huquqqa oid Konstitutsiyamiz normalari o'rganildi. Empirik tadqiqotlarda O'zbekistonning ekologik siyosati, huquqiy mexanizmlari va xalqaro tajriba o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish maqsadida kombinatsiyalangan tadqiqot metodlari qo'llanildi. Unda asosan empirik, huquqiy-tahliliy va solishtirma -uslubiy metodlardan foydalanildi. Empirik metodda asosan aholi orasida so'rovnoma o'tkazildi va ularning atmosfera ifloslanishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularning sabablaridan qanchalik xabardorligi o'rganildi.

Quyida tadqiqot jarayonida olingan empiric ma'lumotlar va ularning visual ko'rinishi – diagrammalar orqali ko'rsatilgan. Ushbu diagrammalar O'zbekistonda havo ifloslanishining asosiy manbalari va ularning darajasini tahlil qilishga yordam beradi.



Sizningcha, O'zbekistonda havo ifloslanishi darajasi:


17 responses



So'rovnoma keltirilgan havo ifloslanishi darajasi bo'yicha berilgan savolga 52,9 % odam "juda yuqori" , 29,4 % "o'rtacha" deb javob bergan. Atigi 11,8 % respondentlar havo ifloslanishi "past" deb baholagan va qolgan 5,9 % ishtirokchilar aniq fikr bildirgan olmaganlar. Natijalar shuni anglatadiki , aholining katta qismi havo sifati bilan bog'liq muammolarni jiddiy ekologik xavf sifatida ko'radi. Bundan tashqari , kam foizlarda o'z fikrini bildirgan respondentlar , shuningdek, aholining boshqa qatlamlariga ekologik muammolar va atmosfera ifloslanishi bilan bog'liq muammolarni tushuntirish, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish majburiyatlarini ham yuklaydi.

Sizningcha, havo ifloslanishi odamlar salomatligiga qanchalik ta'sir qiladi?

17 responses



Inson faoliyatining havo sifatiga ta'siri haqidagi oxirgi savolda 58,8% ishtirokchilar inson faoliyati juda kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. 29,4% esa o'rtacha ta'sir qiladi deb javob bergan. Eng kam qismi ya'ni 5,9 % respondentlar inson faoliyatining ahamiyati past deb hisoblagan. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki , fuqarolarning mutlaq ko'pchiligi ekologik muammolarning ildizi inson faoliyati bilan bog'liq ekanini anglaydi.

Empirik natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi o'rtasida ekologik xabardorlik darajasi yuqori, shunga qaramasdan aholining ekologik madaniyat darajasi hanuz



yeterli darajada emas . Binobarin, atmosfera ifloslanishining asosiy sababi transport vositalari, sanoat korxonalari va ulardan chiqayotgan zaharli gazlar bilan bog`liq. Shuningdek daraxtlar sonining kamayin borishi ham havo sifati yomonlashuvining asosiy omillaridan biridir.

Ushbu empirik tahlil natijalari nafaqat atmosfera havosi bilan bog`liq muammolarni ,balki, mamlakatning ekologik qonunchilik tizimida ma`lum bir kamchiliklarni ham ko`rsatib beradi. Shu sababli ,havo ifloslanishi bilan bog`liq muammolarda faqatgina texnik choralarni emas, balki qonuniy jihatdan ham nazoratni kuchaytirishimiz lozim.

Huquqiy tahlil jihatdan ko`rib chiqadigan bo`lsak:

O`zbekistonda atmosfera havosini muhofaza qilish bo`yicha asosiy normativ-huquqiy baza mavjud bo`lsa-da, uning amaliy ijrosi ko`plab kamchiliklarga ega. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risida"gi Qonunda emissiya me`yorlari, ruxsatnoma tartib-taomillari, nazorat va javobgarlik mexanizmlari belgilangan bo`lsa-da, real hayotda bu jarayonlarning ko`pchiligi yetarli darajada bajarilmaydi. Konstitutsiyaning 50 va 55-moddalarida ekologik huquqlar aniq ko`rsatilgan bo`lishiga qaramay, empirik natijalar aholining bu huquqlari ko`pincha buzilayotganini ko`rsatadi. Monitoring tizimining raqamlashtirilmaganligi, sanoat korxonalarida ekologik uskunalarning eskirganligi, jarimalarning pastligi ekologik siyosatning zaif nuqtalarini tashkil etadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ekologiyaning ifloslanishi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan bittasidir. Olingan empirik tahlillar, respondentlarning fikri va qonun hujjatlarining mazmuni bizga shuni anglatadiki, atmosfera havosining ifloslanishiga nafaqat ayni bir omil, balki bir nechta omillar sabab bo`ladi. Avtomobillardan chiqayotgan turli xildagi gazlar, sanoat korxonalaridagi zaharli moddalar ,shuningdek ,bizga hatto ma`lum bo`lmagan boshqa sabablar birlashib atmosfera havosining maximum ifloslanishiga olib kelmoqda. Bu esa avvalo insonlarga va ularning sog`ligiga ko`rsatilayotgan eng katta zarar demakdir. Agar jamiyat bir bo`lgan holda, korxonalar, tashkilotlar va aholi o`rtasida hamjihatlik asosida bu ziyonlar bartaraf etilsa, bu insoniyatning o`z o`ziga qilgan eng katta yaxshiligi bo`ladi.

Huquqiy tavsiya sifatida shuni ayta olamizki, jamiyatda ekologiyaga foyda keltiruvchi harakatlarni ko`proq amalga oshirishimiz kerak. Masalan, jamiyatda avtotransport vositalari elektromobillarga almashtirilsa havoga chiqadigan gaz miqdori ancha miqdorda kamayadi, shu bilan birga suv va tuproqqa zararli moddalar tushishini ham oldi olingan bo`ladi. Shu o`rinda, qonuniy jihatdan ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni oshirish va aholi o`rtasida ekologik ongni shakllantirish, bu borada targ`ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish ham asosiy jihatlardan biri sanaladi. Bundan tashqari mamlakat hududida ko`proq manzarali daraxtlar ekish ham atmosfera tozalanishi uchun asosiy omil bo`la oladi.





Zero, atrof - muhitni asrash – bu nafaqat qonuniy majburiyat, balki har bir insonning kelajak avlodga nisbatan mas’uliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ministry of Ecology of Uzbekistan (2023), Annual Environmental Report, Tashkent.
2. WHO (2022), Air Quality Database, Geneva.
3. UNEP (2021), Air Pollution in Central Asia, Nairobi.
4. World Bank (2020), Environmental Performance in Uzbekistan, Washington DC.
5. European Environment Agency (2019), Urban Air Quality, Copenhagen.
6. US EPA (2020), Clean Air Act Overview, Washington.
7. Tokhirov, A. (2021), “Ekologik xavfsizlik masalalari”, O‘zbekiston ekologiya jurnali.
8. Rahimov, S. (2020), “Havo ifloslanishining huquqiy asoslari”, Yuridik fanlar axboroti.
9. Kim, H. (2018), Air Protection Policy in Korea, Seoul.
10. Japanese Ministry of Environment (2019), Air Quality Standards, Tokyo.
11. Nazarov, O. (2023), “Atmosfera monitoringi muammolari”, Ekologiya va taraqqiyot.
12. IPCC (2021), Global Climate Report, New York.
13. OECD (2019), Green Growth Indicators, Paris.
14. UNDP Uzbekistan (2020), Environmental Governance, Tashkent.
15. Mirsaidov, R. (2022), “Sanoat chiqindilari nazorati”, Ilm va jamiyat.
16. Karimova, M. (2019), “Transport ekologiyasi”, Texnika va tabiat.
17. Smith, J. (2018), Air Pollution Law, London.
18. FAO (2020), Agricultural Emissions Report, Rome.
19. IMF (2021), Energy Subsidies in Central Asia, Washington.
20. O‘zbekiston Respublikasi “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, 1996.